O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, „Raqamli O'zbekiston – 2030“ strategik dasturi doirasida davlat infratuzilmasini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligida sun'iy intellektni joriy etish va energetik samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar rejalashtirilgan [11;52]. 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda elektron tijorat hajmi o'tgan yilga nisbatan 23 foizga oshib, 2 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag'ni tashkil qilgan [12;44]. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmi oshmoqda. 2024-yil oxirigacha quyosh fotoelektrik quvvatlari ishlab chiqarish yiliga 1,6 ming GWh dan oshishi kutilmoqda [13;78]. Buning natijasida energetika sohasida issiqxona gazlari chiqindilarini har yili taxminan 5 foizga kamaytirish rejalashtirilgan [14;69]. Shuningdek, Karimov et al. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligi 15 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Sun'iy yo'ldosh orqali qishloq xo'jaligi monitoringi natijasida yer unumdorligini 10-12 foizga oshirish mumkinligi aniqlangan [15;93].

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion markazlar va IT-parklar orqali 2023-yilda 8200 nafar mutaxassis raqamli texnologiyalar bo'yicha faoliyat yuritgan, bu esa 2022-yilga nisbatan 26 foiz ko'proq deganidir [16;88]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar uyg'unligi dolzarb tadqiqot mavzusidir. MDH davlatlari va O'zbekistonda ham bu yo'nalishda muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekistonda bu jarayon dastlabki bosqichda bo'lsa-da, hozirda olib borilayotgan strategik chora-tadbirlar va davlat siyosati kelgusida raqamli texnologiyalar orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga kuchli turtki berishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv qo'llanildi, bunda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Mazkur ilmiy ishda deskriptiv va empirik yondashuvlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasiga raqamli texnologiyalar ta'siri tahlil qilindi. Deskriptiv tahlilda xalqaro tajribalar, davlat strategiyalari va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asos qilib olindi. Empirik tahlilda esa iqtisodiy ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar va indikatorlar asosida raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish jarayoni baholandi.

Tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi. Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Energetika vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi hisobotlari, BMT, Jahon banki, OECD va Yel tomonidan nashr etilgan xalqaro hisobotlar, shuningdek ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari va ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi. Birlamchi ma'lumotlar esa ekspert so'rovnomalari va iqtisodiy model sinovlari orqali to'plandi. 50 dan ortiq soha mutaxassislari (iqtisodchilar, ekologlar, IT-ekspertlar, davlat tashkilotlari vakillari) ishtirokida olib borilgan so'rovlar natijalari o'rganildi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Statistik tahlil. O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashga oid ma'lumotlar dinamikasi o'rganildi.

Korelatsion tahlil. Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyotning ekologik barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Komparativ tahlil. O'zbekiston va MDH davlatlarining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari solishtirildi.

Ekonometrik modellashtrish. Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi. Model sifatida panel regressiya hamda VECM (Vector Error Correction Model) usuli qo'llanildi.

Tadqiqot davomida quyidagi cheklovlar mavjud:

Ma'lumotlarning to'liq emasligi – ayrim indikatorlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar cheklangan.

Xalqaro solishtirish murakkabligi – turli mamlakatlarning yashil iqtisodiyot bo'yicha ma'lumotlari o'rtasida farqlar mavjud.

Raqamli texnologiyalarni baholashning murakkabligi – texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati cheklangan.

Shu sababli, tadqiqotda ishlatilgan metodlarning ishonchligini oshirish uchun bir necha mustaqil ma'lumot manbalaridan foydalanildi, statistik ma'lumotlar verifikatsiya qilindi va natijalar har xil metodologiyalar orqali tekshirildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish holatini baholashdan iborat bo'lib, bu boradagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, dinamik tendensiyalar hamda empirik model natijalari quyida keltiriladi. Olingan natijalar muayyan statistika, jadval va grafikalar (mazkur maqolaning tegishli bo'limlarida) yordamida tasdiqlanadi.

Oxirgi o'n yillik (2013–2023) ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi salmog'i barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Agar 2013-yilda iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq xizmatlar yalpi ichki mahsulotning 1,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 2,5 foizga, 2023-yilga kelib esa 3,4 foizga yetgan. Shu davr oralig'ida ushbu xizmatlar sohasidagi yillik o'sish sur'ati o'rtacha 7–8 foiz atrofida bo'lgani kuzatilmoqda.


Raqamli texnologiyalar ta'siridagi eng faol sohalar sifatida elektron tijorat, telekommunikatsiyalar va ma'lumotlarni qayta ishlash xizmatlarini qayd etish mumkin. Xususan, elektron tijorat hajmi 2013-yilda 450 million AQSH dollari bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ko'ra 2 milliard dollardan oshgan.

Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga ta'siri, avvalo, energetika va qishloq xo'jaligi sohalarida yaqqol sezilmoqda. Jumladan, energetik samaradorlikka oid ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013-yilda bir birlik energetik quvvat ishlab chiqarish jarayonida 580 g/kVt-soat hajmida issiqxona gazlari chiqindisi kuzatilgan bo'lsa, raqamli boshqaruv tizimlari, aqlli infratuzilma va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish natijasida 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 420 g/kVt-soatga kamaygan. Bu davrda energetika sohasida raqamli texnologiyalar joriy etilishi issiqxona gazlari chiqindilarini umumiy hisobda taxminan 11–13 foizga qisqartirgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini ham izchil kengaygan bo'lib, 2013-yilda ular iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan umumiy energiya 4,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 15,8 foizga yetgan. Ayniqsa, 2018-yildan keyin quyosh fotoelektrik stansiyalari va shamol energetikasi obyektlarini raqamli monitoring qilish tizimlari joriy etilishi energiya ishlab chiqarish jarayonidagi yo'qotishlarni 7–9 foizga qisqartirishga xizmat qilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasida raqamli vositalar va sun'iy intellekt yechimlari asosida aqlli sug'orish tizimlari hamda masofaviy monitoring joriy qilinishi suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beryapti. Tahlillar ko'rsatishicha, 2013-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida suv sarfi yildan-yilga o'rtacha 2,1 foizga oshib borgan bo'lsa, 2018-yildan 2023-yilgacha har yili o'rtacha 1,3 foizga kamayish kuzatilgan. Ekspertlar fikriga ko'ra, bunday ijobiy tendensiya bevosita raqamli texnologiyalar orqali mavjud suv resurslarini onlayn nazorat qilish, iqlim sharoitini oldindan prognozlash va dalalarda real vaqt rejimida o'lchov ishlarini olib borish bilan bog'liq (1-rasm).

Raqamli texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya o'sish dinamikasi (2013–2023)



1-rasm. Raqamli texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya o'sish dinamikasi (2013–2023)

Tahlillarni tasdiqlash maqsadida tayanch tadqiqot usullari qatorida empirik modellashirish qo'llanildi. Panel regressiya yondashuvlari raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi (IT sektori hajmi, elektron tijoratning





YAIMdagi ulushi va shu kabilar) bilan energetika, transport va qishloq xo'jaligidagi yashil ko'rsatkichlar (energetik samaradorlik indeksi, chiqindi gazlar hajmining yilma-yil o'zgarishi va h.k.) o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu regressiya modeli (95 foizlik ishonch intervalida) raqamli texnologiyalar ulushi 1 foizga oshishi natijasida yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari o'rtacha 0,28–0,32 foizga yaxshilanishini taxmin qilish imkonini bergan.

Bundan tashqari, sifat tahlili bo'yicha 50 nafardan ortiq ekspert bilan olib borilgan so'rovnomalarda respondentlarning 68 foizi O'zbekistonda iqtisodiyotning yashil transformatsiyasida raqamli texnologiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qilishini qayd etgan. 24 foiz ekspert esa bu jarayonda jadal rivojlanish uchun iqtisodiy rag'batlar, ijro mexanizmlari va huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Qolgan qismi esa texnologik infratuzilmaning hozirgi darajasi barqaror rivojlanish uchun yetarli bo'lmaganini alohida qayd etgan.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy jarayonlarga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish sur'atlarini izchil ravishda tezlashtirishi mumkin. Masalan, 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, energiya samaradorligi 15 foizga oshgan, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish hajmi 20,5 foizga kengaygan va 2024-yilga borib bu ko'rsatkich 25 foizga yetishi kutilmoqda. Shunday qilib, olingan statistik hamda empirik natijalar O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalarning ijobiy ta'sirini yaqqol namoyon qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari (2013–2023)

| Yil  | Raqamli texnologiyalar<br>YAIM ulushi (%) | Qayta tiklanuvchi<br>energiya ulushi (%) | Energiya samaradorligi<br>oshishi (%) |
|------|-------------------------------------------|------------------------------------------|---------------------------------------|
| 2013 | 1.8                                       | 4.2                                      | 0.0                                   |
| 2014 | 2.0                                       | 5.0                                      | 1.5                                   |
| 2015 | 2.2                                       | 6.1                                      | 2.8                                   |
| 2016 | 2.3                                       | 7.4                                      | 4.3                                   |
| 2017 | 2.5                                       | 8.5                                      | 6.1                                   |
| 2018 | 2.7                                       | 9.9                                      | 7.9                                   |
| 2019 | 2.9                                       | 11.3                                     | 9.8                                   |
| 2020 | 3.1                                       | 12.7                                     | 11.5                                  |
| 2021 | 3.2                                       | 14.0                                     | 13.0                                  |
| 2022 | 3.3                                       | 15.2                                     | 14.3                                  |
| 2023 | 3.4                                       | 15.8                                     | 15.0                                  |

Mazkur natijalar keyingi bosqichda siyosat chora-tadbirlarini takomillashtirish, jumladan, texnologik ekotizimni rivojlantirish va innovatsion ekosistemalarni kuchaytirish orqali yanada yaxshilanadi.

Natijalarning xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilishi. Mazkur tadqiqotda olingan natijalar xalqaro tajribalar va ilmiy manbalar bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar vositasida rivojlanishi jahon miqyosidagi tendensiyalarga uyg'un ekanligini ko'rish mumkin, ammo rivojlangan davlatlarda erishilgan ko'rsatkichlardan hali pastligi ham ayon bo'ladi.

Masalan, Yevropa Ittifoqining "Green Digital Transition" strategiyasi doirasida energetika, transport va qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni keng qamrovli joriy etish natijasida 2022-yilga kelib energiya tejamlorligi 25–30 foizgacha oshgani qayd etilgan. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, O'zbekistonda bu boradagi ko'rsatkich so'nggi o'n yillikda 15 foiz atrofida o'sgan bo'lib, qisqa davrda jiddiy ijobiy siljishlar bo'lishiga qaramay, xalqaro mezonlarda hali birmuncha past hisoblanadi.


Shu bilan birga, AQSHda "aqlli tarmoqlar" (smart grids) va sun'iy intellekt yordami bilan elektr energiyasini uzatish, taqsimlash va real vaqt rejimida nazorat qilish tizimlari oqibatida uglerod chiqindilarini 20–30 foizgacha qisqartirishga erishilgani ma'lum. Yurtimizda esa energetika sohasida amalga oshirilgan raqamli islohotlar uglerod chiqindilarini 11–13 foizga kamaytirganini ko'rsatadi (2-jadval).



2-jadval. O'zbekistonda uglerod chiqindilarining kamayishi (2013-2023)

| Yil  | Uglerod chiqindilari (g/kVt-soat) | Aqlli infratuzilma joriy etilishi (%) |
|------|-----------------------------------|---------------------------------------|
| 2013 | 580                               | 0                                     |
| 2014 | 570                               | 3                                     |
| 2015 | 555                               | 6                                     |
| 2016 | 540                               | 10                                    |
| 2017 | 525                               | 15                                    |
| 2018 | 510                               | 20                                    |
| 2019 | 495                               | 30                                    |
| 2020 | 475                               | 40                                    |
| 2021 | 455                               | 50                                    |
| 2022 | 435                               | 60                                    |
| 2023 | 420                               | 70                                    |

Bunda tub farq energiya infratuzilmasining modernizatsiya darajasi hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqamli nazorat tizimlari joriy etilishiga uzviy bog'liq ekani kuzatiladi. Xitoyning "Raqamli iqtisodiyot va yashil rivojlanish" dasturi doirasida 2021–2022-yillarda qishloq xo'jaligidagi chiqindilar hajmini 30 foizga, transport sohasida esa 18 foizga qisqartirishga erishilgani qayd etilgan (2-rasm).



2-rasm. Uglerod chiqindilarining kamayishi va aqlli infratuzilma joriy etilishi (2013-2023)

O'zbekistonda esa qishloq xo'jaligida resurslarni (avvalo suv, o'g'it, yoqilg'i) tejamkorlik bilan boshqarish bo'yicha raqamli yechimlardan foydalangan holda suv sarfini 1,3 foizgacha kamaytirish mumkinligi aniqlangan. Bu raqamlar Xitoyda raqamli investitsiyalar hajmi va bozor o'lchami ancha kengligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, Qozog'iston yoki Belarus singari MDH davlatlaridagi tajriba ko'rsatadiki, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish va "yashil" siyosatni uyg'unlashtirish jarayoni asosan davlat darajasidagi strategik qarorlar, xususiy sektor ishtiroki va xorijiy investitsiyalarning jalb etilishiga bog'liq.

O'zbekistonda ham ushbu omillar so'nggi yillarda jadallashgan bo'lib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" kabi dasturlar tufayli elektron tijorat, telekommunikatsiya va IT-xizmatlari sohasida tezkor o'sish kuzatilmoqda. Biroq, MDHning ayrim davlatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini raqamli boshqarish (masalan, shamol



elektr stansiyalarining real vaqt monitoringi) nisbatan oldinroq boshlanganligi sababli, O'zbekistonda ulardan samarali foydalanish darajasi hozircha sustroq ekani ko'rinadi.

Cheklovlar va tadqiqotning zaif tomonlari. Mazkur tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar va qo'llangan metodologik yondashuvlar, asosan, O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi va yashil rivojlanish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bir qator cheklovlar mavjud. Avvalo, statistik ko'rsatkichlarning to'liqligi masalasi e'tiborga loyiqdir. Ba'zi indikatorlar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar oxirgi bir necha yilni yoki faqat ma'lum tarmoqlarni qamrab olgani sababli, tadqiqotda davriy ketma-ketlik mukammal ta'minlanmadi. Natijada ayrim o'zgaruvchilarni baholash uchun modellashirish yoki bilvosita ko'rsatkichlar (proxy variables) qo'llanildi. Bu esa tadqiqot xulosalarining aniq ishonchligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi tomondan, tadqiqot uslubiyati cheklovlari ham mavjud. Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yangilanishlar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, asosan, panel regressiya va korelatsion tahlil metodlari orqali baholandi. Ushbu yondashuvlar amaliy jihatdan qulay bo'lsa-da, barcha omillarni, xususan, institutsional muhit, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, investitsion faollik va inson kapitali darajasi kabi omillarni to'liq qamrab ololmasligi mumkin. Shuningdek, davlat siyosatining turli bosqichlarda ko'rsatgan ta'siri ham aniq empirik modellarga kiritish jarayonida murakkablik tug'diradi.

Uchinchi cheklov – hududiy yoki sektorlar bo'yicha chegaralar. Mazkur tadqiqot asosan O'zbekistondagi iqtisodiy sharoitlar hamda so'nggi yillarda joriy etilgan dasturlar, texnologik islohotlar va qonunchilik normalarini hisobga olib tuzilgan. Demak, olingan natijalar to'g'ridan-to'g'ri boshqa mamlakatlarga tatbiq etilishi qiyin bo'lishi mumkin, chunki har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik siyosati individual xususiyatlarga ega. Shuningdek, tadqiqotda ko'proq energetika va qishloq xo'jaligiga urg'u berilgan bo'lib, sanoat va transport tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishning ekologik ta'siri cheklangan ma'lumotlar doirasida o'rganilgan. Natijada ushbu sohalaridagi holat ko'rsatkichlari to'liq aks etmay, davriy yoki qisman ifodalanish bilan kifoylangan.

Kelajak tadqiqot yo'nalishlari. Yuqoridagi cheklovlarni bartaraf etish va mavzuni yanada chuqur o'rganish maqsadida bir qator istiqbolli ilmiy yo'nalishlar mavjud. Avvalo, ma'lumotlar bazasini kengaytirish va sifatli statistik ko'rsatkichlarni yig'ish ustida ko'proq e'tibor qaratish lozim. Xususan, sanoat va transport tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoniga oid keng qamrovli empirik tadqiqotlar olib borish, ular orqali uglerod chiqindilari, energiya sarfi va logistika jarayonlaridagi samaradorlikni solishtirish tadqiqotning ilmiy bahosini yanada boyitadi.

Yana bir muhim yo'nalish – raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi ta'sirchanlikni iqtisodiy modellar (ayniqsa, strukturaning aniq namoyon bo'lishini ta'minlovchi DSGE yoki VECM modellar) orqali baholash. Bunday modellar iqtisodiyotdagi ichki o'zaro bog'liqliklarni yaxlit holda ko'rsatadi va har bir o'zgaruvchi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik yo'lida qilinadigan qo'shma tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tajribasini boshqa MDH yoki rivojlangan davlatlar tajribasi bilan kengroq solishtirish, global nuqtayi nazardan raqamli texnologiyalarni tatbiq etish usullarini o'zlashtirish, ekologik innovatsiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish kabilar kelgusida iqtisodiy siyosatni aniq ma'lumotlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, tarmoq darajasida hamda regionlar kesimida chuqur tahlil olib borish, milliy dasturlarni xalqaro loyihalar bilan uyg'unlashtirish va birgalikda amaliy tajriba orttirish tadqiqot natijalarining keng ko'lamda tatbiq etilishiga imkon yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Energetika sohasida aqlli tarmoqlar (smart grids) va sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari joriy etilishi natijasida energiya samaradorligi 15 foizga oshgani va issiqxona gazlari chiqindilari 11–13 foizga qisqargani kuzatildi. Bu natijalar xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, O'zbekiston hali yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga yetmagan bo'lsa-da, ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi suv va resurslardan samarali foydalanish imkonini bermokda. Masofaviy monitoring, aqlli sug'orish tizimlari va sun'iy yo'ldosh tasvirlariga asoslangan tahlillar natijasida qishloq xo'jaligidagi suv sarfi o'rtacha 1,3 foizga kamaygan, hosildorlik esa 10 foizga oshgani qayd etilgan. Ushbu yutuqlar xalqaro tajribalar bilan taqqoslanganda, Xitoy va AQSH kabi ilg'or davlatlardagi natijalardan past bo'lsa-da, O'zbekiston qishloq xo'jaligida raqamli yechimlarni joriy etishda barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.





Uchinchidan, elektron tijorat va IT-xizmatlari sohasi yashil iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. So'nggi o'n yillikda elektron tijorat hajmi besh baravar oshib, 2023-yil yakunlari bo'yicha 2 milliard AQSH dollaridan oshgan. Telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish natijasida IT-parklar va innovatsion markazlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar soni 8200 nafarga yetgani kuzatildi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi bo'yicha hali bir qator cheklovlar mavjud. Xususan, sanoat va transport tarmoqlarida uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan raqamli transformatsiya dasturlari hali to'liq shakllanmagan. Shuningdek, xalqaro solishtirma tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni rivojlangan davlatlarga nisbatan sustroq kechmoqda.

Shu sababli, kelgusida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

Raqamli texnologiyalar yordamida sanoat va transport tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish uchun kompleks dasturlar ishlab chiqish.

Empirik modellashirish usullari yordamida yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiy transformatsiya jarayonida raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyot rivojlanishiga yo'naltirish borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan Publications. [1;23]
2. OECD. (2011). Towards Green Growth. OECD Publishing. [2;57]
3. Geels, F. W., Sovacool, B. K., Schwanen, T., & Sorrell, S. (2020). Sociotechnical transitions for deep decarbonization. Science, 368(6493), 361-370. [3;102]
4. Zhang, Y., Liu, X., & Huang, J. (2022). Digital Economy and Green Development in China: Challenges and Opportunities. Journal of Environmental Management, 315, 113-126. [4;64]
5. Brown, M. A., Cox, M., & Staver, B. (2021). Smart Grid and Energy Efficiency: Global Innovations and Best Practices. Energy Policy, 152, 112-124. [5;85]
6. European Commission. (2023). Green Digital Transition in the European Union: Policy, Implementation, and Impact. European Green Deal Report. [6;71]
7. Russian Federation Ministry of Economic Development. (2018). National Strategy for Ecological Transformation and Digital Technologies. Moscow: Government Press. [7;39]
8. Bekturov, T., & Aitbekov, B. (2021). Kazakhstan's Green Economy and Digital Innovations: Progress and Prospects. Central Asian Economic Review, 7(2), 75-96. [8;94]
9. World Bank. (2022). Digital Technologies and Sustainable Development in Central Asia. World Bank Publications. [9;81]
10. Ivanov, A., & Smirnov, D. (2022). Smart City Technologies and Green Economy in Belarus: Challenges and Achievements. Journal of Urban Sustainability, 10(1), 88-112. [10;110]
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" Davlat dasturi. Toshkent: Prezident matbuot xizmati. [11;52]
12. Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasida Raqamli texnologiyalar va Yashil iqtisodiyot: rivojlanish dinamikasi. Toshkent: Davstatqo'm. [12;44]
13. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha yillik hisobot. Toshkent: Energetika vazirligi nashriyoti. [13;78]
14. Karimov, U., & Nasriddinov, M. (2023). Digitalization in Uzbekistan's Agriculture: Smart Solutions and Sustainable Growth. Uzbek Journal of Agricultural Research, 5(3), 65-85. [14;69]
15. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. (2023). Raqamli texnologiyalar va Yashil iqtisodiyot: Ilmiy tadqiqot natijalari. Toshkent: FA nashriyoti. [15;93]
16. IT-Park Uzbekistan. (2023). O'zbekistonda IT-Sektor rivojlanishi va raqamli transformatsiya: Yillik tahliliy hisobot. Toshkent: IT Park Matbuot Xizmati. [16;88]



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025-yil. navbatdan tashqari son

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>





